*Til – dil tarjimoni*
*O'zbek xalq maqoli*

1991-yildan chiqa boshlagan.

2017-yil. 12-son.

ISSN 2010-5584

# TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

# ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

# LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz

## *Yangi 2018-yil qutlug' bo'lsin!*




**USHBU SONDA**

*Fidoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston!*
So'z ishqida yongan shoira — *3-bet*

*Dolzarb mavzu*
Ona tili ta'limi va davr talabi — *8-bet*

*Ilg'or pedagogik texnologiyalar*
She'r g'oyasi asosida insho yozish — *28-bet*

*Методика. Опыт*
Профессиональный язык врача — *стр. 53*

*Изучаем иностранные языки*
Особенности, значение и употребление артиклей в английском языке — *стр. 77*

1991-yildan chiqa boshlagan

# TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Til – dil tarjimoni. O'zbek xalq maqoli

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

**2017-yil. 12-son.**

**Bosh muharrir:**
Bahodir JOVLIYEV

**Tahrir hay'ati:**
Baxtiyor DONIYOROV
Mamatqul JO'RAYEV
Shahnoza JO'RAYEVA
Islom ZOKIROV
Ulug'bek INOYATOV
Abduhamid MUXTOROV
*(bosh muharrir o'rinbosari)*
Nizomiddin MAHMUDOV
Hikmatilla RASHIDOV
Abdurahim NOSIROV
Nargiza RAHMONQULOVA
Sirojiddin SAYYID

**Jamoatchilik kengashi:**
Muhammadjon ALIYEV
Ergesh ABDUVALITOV
Manzura DADAXO'JAYEVA
Lutfullo JO'RAYEV
Ehson TURDIQULOV
Valijon QODIROV

**Sahifalovchilar:**
Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

**Nashr uchun mas'ul:**
Nilufar NAMOZOVA
Nargis BOBODJANOVA

**Tahririyat manzili:**
*100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.*
*Telefon: (0 371) 244-04-18, 244-04-15, 244-20-63, 244-26-89.*
*e-mail: til_adabiyot@umail.uz*
*veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz*

*Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar «Til va adabiyot ta'limi»dan olindi, deb izohlanishi shart.*

*Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.*

*Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.*

Bosmaxonaga 07.12.2017-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturasi. 10, 11 kegl. «KOLORPAK» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh. Yashnobod tum., Elbek 8.
Buyurtma № 1913. Adadi 9000 nusxa.
Bahosi kelishilgan narxda.

## MUNDARIJA

**FIDOYING BO'LGAYMIZ SENI, O'ZBEKISTON!**
**Nigora O'rolova.** So'z ishqida yongan shoira ... 3
**DOLZARB MAVZU**
**Shahnoza Ergasheva.** Badiiy asar tahlili va kitobxonlik muammosi ... 6
**Sotiboldi Odilov.** Ona tili ta'limi va davr talabi ... 8
**Sharobiddin Hasanov.** Badiiy asarning o'quv tahliliga analitik yondashuv ... 9
**DARS – MUQADDAS**
**Oybek Rasulov.** Olim bo'lsang, olam seniki ... 13
**Aziza Rustamova.** Nutqiy kompetensiyani shakllantirishda "San" texnologiyasi ... 15
**Maxfurat Otayeva.** Izlagan imkon topar ... 16
**Dilafro'z Mo'minova.** "O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan..." ... 19
**ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR**
**Sho'lpan Bulekbayeva.** Iboralar nutq ta'sirchanligini oshiradi ... 22
**Dilbar O'rinboyeva.** Maqollar – ma'no ummonidagi dur ... 24
**Muqaddas Vohidova.** Gapning ikkinchi darajali bo'laklarini o'rganish usullari ... 26
**Mutallib Hazratqulov.** She'r g'oyasi asosida insho yozish ... 28
**Sayyora Nazarova.** Xitoy tili darslarida yozish va o'qish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ... 30
**TEACHING ENGLISH**
Email ... 32
Job Interviews ... 33
**TADQIQOTLAR**
**To'xtamurod Qo'chqorov.** O'zbek folklorida bo'ri kultining izlari ... 34
**Gulnoza Boltaqulova.** Mikromatnda zamon deyksisining ifodalanish xususiyatlari ... 36
**Sharifa Iskandarova, Mavluda Qahhorova.** O'zbek etnografik leksikasi va etnolingvistika masalalari ... 39
**METODIK TAVSIYA**
**Sayyora Israilova.** Xorijiy tilni o'rganishda xalq maqollarining ahamiyati ... 41
**FIKR**
**Zoir Tohirov.** Badiiy asar tilini o'rganuvchi fan qaysi? ... 42
**Oqila To'raqulova.** Komil insonni tarbiyalashda mutolaaning o'rni ... 44
**KICHIK TADQIQOT**
**Dildora Hoshimova.** "Boburnoma"da hayvonot va qushlar tasviri ... 46
**АВТОРСКОЕ СЛОВО**
**Юлия Мусурманова.** «По секрету всему свету» ... 49
**МЕТОДИКА. ОПЫТ**
**Дилором Абдуллаева.** Профессиональный язык врача ... 53
**ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ**
**Шоира Машарипова.** Основные механизмы, позволяющие учить учиться ... 55
**Умида Насирова.** О методическом обеспечении дисциплины «Английский язык» ... 56
**ЯЗЫКОЗНАНИЕ**
**Саида Атавуллаева.** Изучение имен прилагательных с приставкой раз-/рас- в сравнительной степени ... 59
**ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ**
**Лайло Шарипова.** Интерпретация образа реки в фольклоре и письменной поэзии ... 61
**Надежда Шакурбанова.** Стилистическое назначение антропонимов в произведениях Н.М.Карамзина ... 63
**ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ**
**Мукаррама Бердиева.** Формирование профессиональной компетенции при работе над стилями речи ... 65
**Азиза Бедилова.** Роль проектного метода в процессе обучения ... 68
**Анвар Юсупов.** Современные методы и технологии обучения иностранным языкам ... 70
**Камола Раимова.** Формирование ценностных ориентиров у студентов в контексте культурного разнообразия ... 72
**ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ**
**Беккенбауэр Реимов, Айшолпан Ниязова.** Этапы работы с английскими фразеологизмами, включающими альтернант smb ... 73
**Сурайе Мусаева.** Контроль за процессом обучения иностранному языку ... 76
**Екатерина Аминова.** Особенности, значение и употребление артиклей в английском языке ... 77
**Инновации**
**Эльвира Рыбинская.** Совершенствование качества обучения иностранным языкам в учебных заведениях республики ... 79

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI / ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ / LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING **jurnali**

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA va PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.*

Tilshunoslik uslubiyati ham, adabiyotshunoslik uslubiyati ham shu maqsadga xizmat qiladi.

Badiiy asar tilini har tomonlama to'laqonli tahlil etish V.V.Vinogradov aytgan alohida filologik fan, bu – *adabiy tahrir* fani. Zero, adabiy tahrir fani badiiy asarni ham adabiy til, ham adabiy til uslubiyati, ham adabiyotshunoslik, ham adabiy tur va janr, kompozitsiya, so'zlashuv uslubi, adib uslubi, auditoriyasi va tahrir ilmining boshqa talablari nuqtayi nazaridan tahlil etadi, baholaydi.

Demak, nazarimizda badiiy asar tilshunoslikka, adabiyotshunoslikka yaqin turuvchi, shu bilan birga ulardan farq qiluvchi uchinchi filologik fan – adabiy tahrir fanining tadqiqot obyekti, badiiy asar tili esa adabiy tahrir fanining tadqiqot predmeti hisoblanadi.

[1]Виноградов В.В. О языке художественной литературы. М., 1959. С. 34.
[2]A.Ahmedov. Badiiy asar tilini o'rganish haqida // O'zbek tili va adabiyoti masalalari, 1960. 3-son. 46–50-betlar.
[3]P.Qodirov. Xalq tili va realistik proza. T., 1973.
[4]Q.Samadov. Oybekning til mahorati. T.: Fan, 1981. 3-bet.
[5]Щерба Л.В. Опыты лингвистического толкования стихотворений// Вопросы языковедения. Москва, 1983. 129-бет.
[6]A.Ahmedov. Badiiy asar tilini o'rganish haqida // O'zbek tili va adabiyoti masalalari, 1960. 3-son. 50-bet.
[7]Qarang: Васильева А.Н. Художественная речь. Москва: Русский язык, 1983.
[8]O.Sharafiddinov. Haqiqatga sadoqat. T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. 164-bet.
[9]Qarang: B.Umarqulov. Poetik nutq leksikasi. T.: Fan, 1990. 5-bet.
[10]Qarang: Izzat Sultonov. Badiiy asarning tili // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1939. 5-son; A.G'ulomov. Badiiy adabiyotning tili haqida // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1941. 1-son.
[11]Qarang: A.Ahmedov. Badiiy asar tilini o'rganish haqida // O'zbek tili va adabiyoti, 1960. 3-son.
[12]X.Doniyorov, S.Mirzayev. So'z san'ati. T.: Fan, 1962.

**Oqila TO'RAQULOVA,**
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti qoshidagi 1-akademik litseyning o'zbek tili va adabiyot fani o'qituvchisi

# KOMIL INSONNI TARBIYALASHDA MUTOLAANING ROLI

Barkamol avlod kamolotida mustaqil bilim olish va mutolaaning o'rni beqiyos. Inson har qanday sharoitda, jamiyat rivojining har qanday bosqichida mutolaa yordamida o'z-o'zini kamol toptirishi mumkin. Bu esa mutolaa omilini favqulodda ijtimoiy zaruriyat darajasiga chiqaradi. Barkamol shaxsni tarbiyalash azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, ma'naviyatining uzviy qismi bo'lib kelgan. Buning isbotini mutafakkirlarimiz asarlarida ko'rishimiz mumkin. Xususan, ulug' alloma Abu Nasr Forobiy: "Inson erishadigan eng yuksak kamolot tabiat ato qilgan kamolot darajasining o'zidir, inson erishgan barkamollik, niyat va erkin tanlov natijasidir", – deb bejiz aytmagan.

Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarining "Turli foydali maslahatlar va maqolalar" deb nomlangan uchinchi qismida odam va odamiylik, chin insoniy fazilatlar haqida hayot tajribalariga tayanib chiqarilgan xulosalari keltirilgan. Navoiy asarlarida o'zi qayta-qayta takrorlagani "oz so'z – soz so'z" hikmatiga to'la rioya qiladi va hech qanday mubolag'asiz aytish mumkinki, "deyarli har bir jumla, har bir ta'kid va tanbehda hikmat va donolik namunalarini yaratadi, ularga rioya qilish – barkamol bo'lish demakdir", deyiladi.

*Kishiga necha kelsa mushkul hol,*
*Hikmat-u aql anga erur halol.*

Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston" nomli asarida komillik bilim, aql va axloq uyg'unligidan hosil bo'lishi, madaniyat va kitobga munosabat, madaniyat va o'qish, anglash, talqin hodisalari o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligi asoslab berilgan.

Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib kabi allomalar ijodida jamiyatning kamolotga erishuvida "odil shoh"ning ahamiyati yuksakligi e'tirof etiladi.

Aziziddin Nasafiyning "Komil inson xalq orasida rostlikni qaror toptirishi va yomon odatlarni xalq orasidan ko'tarishi, odamlarni yaxshillik, ezgulik, komillik sari yetaklamog'i lozimligi"ni qayta-qayta ta'kidlashi diqqatga sazovor.

Imom G'azzoliy, Naqshbandiy, Navoiy, Mashrab ijodida ham komil inson, adolatli shoh, ilmning xosiyati, odob-axloq to'g'risidagi fikrlarni ko'rish mumkin. XIX asrga kelib ma'rifatparvar ijodkorlar – Ahmad Donish, Furqat, Muqimiy ijodida yangicha yondashuv ko'zga tashlanadi. Bu qarashlar keyinchalik Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvar qori va boshqalarning ilmiy asarlarida tahlil qilinadi.

Xususan, Abdurauf Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" nomli asarida "farzandni jismonan, aqlan, axloqan kamolga yetishtirib, hayot maydoniga kuchli, aqlli va yaxshi axloq bilan chiqarish zarur"ligi takidlanadi.

Mutolaa inson kamolotida muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olgan holda bugungi kunda barcha sa'y-harakatlarimiz komil insonni tarbiyalashga

yaratilmog'i, bunda mutolaa madaniyatini rivojlantirish, o'quvchilarni izlanish zavqidan chekinmaslikka o'rgatish, ularga o'qish, o'rganishda izchillikka erishish lozimligini anglatish zarur.

Keyingi yillarda mutolaa madaniyatini tarkib toptirishning yangi shakl va uslublari yuzaga chiqishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal taraqqiy etishi, internet tarmog'idan ma'lumotlar olish imkoniyatining kengayishi bolalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda katta ahamiyat kasb etish bilan birga ta'lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi ayrim muammolarni ham keltirib chiqarmoqda:

– olingan ma'lumotlarni yodda saqlab qolaolmaslik;

– mustaqil o'qish va o'z fikrini erkin bayon eta olmaslik;

– axborotlarni tahlil etish, umumlashtirish, taqqoslash va xulosa chiqarish kabi tafakkur jarayonlarining taraqqiy etmaganligi;

– og'zaki va yozma nutq, obrazli va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda psixologik to'siqlarning yuzaga kelishi.

Ma'naviy hayotimizni yuksaltirishda ulkan ahamiyatga ega bo'lgan muhim vazifalarni kompleks hal etish, kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, o'zbek va dunyo adabiyotining eng yaxshi namunalarini internet tarmoqlariga joylashtirish va ularni targ'ib qilish hamda keng kitobxonlar ommasiga yetkazish ishlarini samarali tashkil etish maqsadida:

– yoshlar orasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o'stirishga xizmat qiladigan kitoblarga bo'lgan talabni o'rganish, shu jumladan, ijtimoiy so'rovlar orqali aniqlash, nashriyotlar tomonidan chiqariladigan badiiy, ma'rifiy, yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishga doir adabiyotlarning (jumladan, elektron shaklda) umumiy buyurtma ro'yxatini shakllantirish;

– jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga va o'zbek tilidagi eng yaxshi asarlarni chet tillarga tarjima qilish;

– bolalar adabiyotiga ixtisoslashgan nashriyotlarga moliyaviy imtiyozlar berish va moddiy qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirish;

– kitob tarqatish tizimini yanada rivojlantirish va aholining keng qatlamini qamrab olish, kitob mahsulotlari narxini shakllantirish;

– axborot-kutubxona muassasalarining, ayniqsa, ta'lim sohasidagi axborot-resurs markazlari fondlarini shakllantirishda o'quv adabiyotlari bilan bir qatorda badiiy, ma'rifiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar ro'yxatini qayta ko'rib chiqish;

– ta'lim muassasalari, kutubxonalar, mahallalarda kitob mualliflari bilan ijodiy uchrashuvlarni tizimli ravishda tashkil etish hamda ta'lim muassasalari, ayniqsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda o'qish madaniyati va mutolaa ko'nikmalarini shakllantirish;

– ta'lim muassasalarida sinfdan tashqari o'qish uchun tavsiya etilgan o'zbek va chet el adiblarining mumtoz va zamonaviy asarlarini tanlab, xrestomatiya adabiyotlari ro'yxatlarini qayta ko'rib chiqish va o'quv jarayoniga mutolaa etilgan asarlar asosida insho yozish tizimini joriy etish;

– yozuvchi-shoirlar ishtirokida kitob bayrami va yarmarkalarini tashkil etish, aholi o'rtasida badiiy jihatdan yuksak milliy va jahon mumtoz adabiyotlari namunalarini targ'ib qilish, kitobxonlar, bosma va elektron kitob ishlab chiqaruvchilar, kitob sotuvchilar hamda kutubxonachi va targ'ibotchilar orasida tanlovlar ("Yilning eng yaxshi kitobi", "Eng yaxshi kitobxon oila", "Yilning eng yaxshi bolalar kitobi", "Yilning eng yaxshi audio kitobi", "Yilning eng yaxshi elektron kitobi" kabi) o'tkazish tizimini takomillashtirish.

Yoshlarda o'qish-o'rganishga havas uyg'otib, ularda mutolaa madaniyatini yanada rivojlantirish, oila, maktab, litsey, kollej, kutubxona to'rtligining hamkorligi, bir-birini to'ldiruvchi pedagogik-psixologik usullaridan samarali foydalanish natijasida ta'minlanadi:

– o'quvchi yoshlarda mutolaa ko'nikmasini hosil qilish maqsadida maktabda va o'rta-maxsus o'quv yurtlarida mutolaa madaniyatini tarkib toptirishga mo'ljallangan maxsus darslar o'qitilishini o'quv dasturlariga kiritish, bunda badiiy adabiyotlar mutolaasi bilan soha adabiyotlari mutolaasi orasidagi farqlarga e'tibor berish;

– kutubxona xizmatini yangicha tashkil etish;

– kitobxonlik va mutolaa madaniyatini rivojlantirish orqali maktab, akademik litsey o'quvchilarida badiiy ijodkorlikni rivojlantirishning metodik ta'minotini ishlab chiqish;

– adabiyot darslarida o'quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirish orqali analitik tafakkurni rivojlantirishning komponentlari, bosqichlari, shakl, metod va vositalarini yaxlitlikda o'z ichiga qamrab olgan lokal-modulli texnologiyani ishlab chiqish;

– dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishda axborot-resurs markazlari va o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish orqali android kitoblardan foydalanishning amaliy-texnologik tizimini ishlab chiqish.

Yuqoridagi tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi komil insonni tarbiyalash, mutolaa madaniyatini rivojlantirishda muhim omil sanaladi. Milliy istiqlol mafkurasi hamda komil inson konsepsiyalarining maqsadi ham kitobxon yoshlarning o'z-o'zini rivojlantirish yo'liga olib chiqish ekanligini e'tiborga olishimiz zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarori.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T., 2016.
4. Ziyonet.uz/ru/book. "Mahbub ul-qulub" – dillarimiz obodligi.
5. Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. T., 1989.
6. U. Uvatov. Donolardan saboqlar. T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
7. A.Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. T.: Ma'naviyat, 1998.